

O'SMIRLAR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Bozorova Sarvinoz Abdixamidovna

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani 17-maktab amaliyotchi psixolog

Annontatsiya: Respublikamizda barkamol shaxs va malakali mutaxassis tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini ta`minlashga qaratilgan uzliksiz ta`lim tizimi tarkib toptirildi. Mustaqil huquqiy demokratik davlat qurish jarayoni nazariyotchilar, amaliyotchilar va ta`lim tizimi rahbarlari oldiga kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan moslashuvchan kadrlarni tayyorlash masalasini qo'ydi. Maqolada o'smir yoshdagি bolalarda kasbga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini oshirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: analiz, sintez, klassifikatsiyalash, kasb, diagnostik kasb.

KIRISH

O'smirlarni o'r ganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborliligini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan xolatlar kuzatiladi. Shunningdek, kasbiga qiziqishini shakllantirishni ta`minlaydigan intellektual komponentning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- Analiz va sintez;
- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash.

Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablarni umumiyl holatini izohlash uchun

1. O'smirlarni tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;
2. Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish.
3. Turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish.

4. Mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma`naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish.
5. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish sohalarining o'smirlarni uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.
6. Kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta`siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.
7. Kasb - xunar kolleji, oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda

“xohlayman”, “uddalayman” hamda yengil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta`minlash zarur.

O'smirlarni kasbga tayyorlash jarayoni, mehnatga munosabatini tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va shakllantirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Shaxsiy-psixologik omillarga esa e`tiqod ehtiyoji, moyillik, odatlar, ma'lum bir faoliyatning biror turini tanlash masalalari kiradi. Inson ongini o'rganishda shaxsning aniq vaziyatdagi, aniq maqsadi pedagogik-psixologik, kasbiy, texnik-texnologik folyatining asosiy maqsadi yoshlarda faqat moddiy boyliklar yaratish malakasini tarbiyalash emas, balki mehnat qilish ehtiyojini ham tarkib toptirishdir. Kasbiy yo'naltirish va tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchi yuksak g'oyaviy, printsipial, siyosiy etuk va ma`naviy barqaror inson bo'lishi shart

Pedagog o'zining – o'quvchilarini bilish va hurmatlash, doimo ularning har tomonlama kamol topishi uchun qayg`urish, ehtiyoj va qiziqishlarini tushunish, har biriga yakka holda yondoshish kasbga yo'naltirish, pedagogik mahorat, o'z ustida uzlusiz ijodiy ishlash, o'z bilimlarini takomillashtirib borish, yuksak saviyaga erishishi muhim ahamiyatga ega.

Kasb tanlashda o'smirlarga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri

bo'lib xizmat qiladi. Kasblar bo'yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo'lib ular bir - biridan farq qiladi.

Kasbni mazmuni bilan iloji boricha chuqurroq tanishtirishga qaratilgandir. U sizni o'qa kasbni shaxsga nisbatan qanday talablar qo'yishi bilan tanishtiradi, bu kasbni qaerda, qanday qilib o'rghanish yo'llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi: shu maslahatning o'zida siz kasb mahoratini oshirish yo'llari to'g'risida ham ko'pgina ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin. Odatda bunday maslahatlarni o'sha kasbda uzoq vaqtdan beri ishlayotgan tajribali mutaxassislar o'tkazadilar.

Kishini har tomonlama o'rghanish asosida undagi qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasbiy jihatdan muhim bo'lgan ayrim sifatlarni aniqlab o'rghanishga qaratilgandir.

Bunday maslahatdan maqsad-faoliyatning qanday sohasida siz muvaffaqiyatli ishlastingiz mumkinligini, ya'ni siz qaysi sohada jamiyat uchun maksimal foyda keltirishingiz mumkinligini hamda o'z mehnatingizdan mumkin qadar ko'proq qoniqish hosil qilishingizni oldindan belgilab berishdan iborat. Diagnostik kasb maslahatini psixologlar o'tkazadilar. Ular shaxsni o'rghanishning anketa to'ldirish, testlar bilan sinash singari har xil metodlarini qo'llaydilar. Tibbiy kasb maslahati:

Odamning salomatligi u tanlagen kasb talablariga qay darajada muvofiq kelishini aniqlab olishga yordam beradi. Agar siz mo'ljallayotgan kasb qandaydir bir sabab bilan sog'lig`ingizga to'g'ri kelmaydi, deb topilgudek bo'lsa, u holda vrach sizga boshqa bir kasbni, ya'ni sizning qiziqishingiz va sog'lig`ingizga zarar etmaydigan kasbni tanlashga tavsiya qiladi.



O'smirlarni bir kasbni tanlasa-yu, lekin uning real imkoniyatlari va qobiliyatlariga o'sha kasb muvofiq kelmagan hollarda bunday maslahat zarur bo'ladi. Bunday vaziyatda kasbiy rejani qaytadan ko'rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish zarur bo'lib qoladi.. Meditsina kasb maslahatiga ma'lumot – axborot berish xarakteridagi va tuzatish kirituvchi xarakterdagi elementlar mayjud bo'lsa, diagnostik kasb maslahatida kasb maslahatlarining elementlari uchraydi va hakozo.

Kasbga layoqatliligi. Kasbga layoqatliligini aniqlash 3 yo'l bilan amalga oshiriladi.

- a) Sog'lig'i to'g'risida;
- b) Kasbga taxminiy tayyorgarlikning puxtaligi;
- v) Psixofiziologik holati.

Bu layoqatligiga qarab mutaxassislar o'smirlarga u yoki bu kasbga loyiq ekanligini aniqlashadi va kasbni o'zgartirish kerakligi yoki sog'liqqa zararligini, uning organizmi tanlagan kasbiga loyiq emasligi to'g'risida ma'lumot berishadi.

Ushbu mavzu yuzasidan olib boriladigan – kasbga yo'naltirish masalalarida test, anketa, suhat metodlaridan shuningdek psixologik metodikalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid metodikaning mohiyati, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining yakuni va natijalari ilmiy asoslangan. O'smirlarni kasb-hunarga yo'naltirish borasida tashkil etilgai tajriba-sinov ishlari jarayonida yoshlarni kasbga yo'naltirish jarayonining samarali kechishini ta`minlovchi shakl, metod va vositalar aniqlandi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- 1) faoliyat shakli - suhbat, anketa hamtsa test so'rovlarni tashkil qilish, uchrashuv, davra suhbati, interv'yu, konferentsiya, seminar, debat, ashliy trening, ko'rgazma, ekskursiya, tanlov, .ma`ruza va boshqalar;
- 2) faoliyat metodlari - pedagogik kuzatuv, hikoya qilish, tushuntirish, manbalar mazmunini o'rganish, ko'rgazmalilik, amaliy mashg'ulot, ekskursiya, namoyish etish, "Aqliy hujum", "Qizil va qora", "Qora quti", "Fikrlarniig shiddatli hujumi", "Klaster", "Qarorlar qabul qilish texnologiyasi", "Muz yorar" kabi uslublar;
- 3) faoliyat samaradorligini ta`minlovchi vositalar - o'quv manbalari, yordamchi adabiyotlar, pedagogik amaliyat, madaniy meros namunalari, o'quv va texnik jihozlar, axborot texnologiyalari (televizor, radio, komp'yuter, audio va video magnitofonlar), ilg'or pedagoglarning ish tajribalari va hokazolar.

XULOSA

Demak o'smirlarni kasbga yo'naltirishga qo'yiladigan pedagogik - psixofiziologik talablar umumiy holda quyidagi xulosalarga olib keldi:

- o'smirlarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish;
- o'smirlarni kasbiy qiziqishi tanlagan kasb bilan o'zaro aloqasida namoyon bo'luvchi shaxsning murakkab sifati ekanligini anglash;
- o'smirlarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvar uyuştirish;
- o'smirlarni mexnat faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- Ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar yaratish lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Milliy kadrlar» dasturi. Ma'rifat gazetasi.15 sentyabr,1997 yil.
2. I. A. Karimov “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi; O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralar” T., 2009 y mart
3. M. Ochilov “Muallim qalb me'mori” T., “O'qituvchi” 2001 y
4. M. F. Ziyaeva “Bo'lajak tibbiyat xodimining kasbiy yo'nalganligini shakllantirish” Xalq ta`limi j ., 2001 y 3-son., 54-56 b.
5. M. F. Ziyaeva “Kasbga qiziqish va kasb tanlash” Kasb xunar ta`limi j ., 2001 y 5-son., 15-17 b.
6. B. X. Raximov “Ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchi shaxsning kasb madaniyati” Samarqand., 1996 y., 43-45 b.